



ETEROKRATIYA - XXI ASR GEOSIYOSATINING YANGI QOIDALARI

Abduvahob Abdulxayev¹, Zafarbek Muhammadov²,
Jasurbek N. Pulatov³

^{1,2}Jahon Iqtisodiyoti va Diplomatiya Universiteti
Xalqaro Munosabatlar fakulteti

³Ilmiy rahbar Jahon Iqtisodiyoti va Diplomatiya Universiteti
Xalqaro Munosabatlar kafedrası

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20291990>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 13-may 2026 yil

Ma'qullandi: 16-may 2026 yil

Nashr qilindi: 19-may 2026 yil

KEYWORDS

eterokratiya, geosiyosat, kiber kuch, axborot urushi, tellurokratiya, talassokratiya, kognitiv ta'sir, kiber makon, raqamli infratuzilma, dezinformatsiya

ABSTRACT

Mazkur tadqiqotda an'anaviy geosiyosiy paradigmalarda — tellurokratiya va talassokratiyaning evolyutsion transformatsiyasi natijasida yuzaga kelgan "eterokratiya" fenomenini global qudratning yangi va hal qiluvchi o'lchami sifatida tahlil etiladi. Maqolada moddiy va hududiy nazorat tushunchasining virtual-axborot makonidagi ustuvorlikka o'rin bo'shatib berish jarayonlari, hamda nomoddiy resurslarning xalqaro munosabatlar iyerarxiyasidagi o'rni ilmiy jihatdan asoslanadi. Mualliflar eterokratiyani texnologik ilgarilash emas, balki kognitiv makon va global axborot oqimlari ustidan o'rnatiladigan strategik gegemoniya shakli sifatida talqin qiladi. Tadqiqot davomida raqamli suverenitet inqirozi va kibermakonning geosiyosiy arxitekturasi tahlili orqali zamonaviy dunyo tartibida davlatlarning qudrati ularning eter (axborot va signal) hududidagi ekspansiv imkoniyatlari bilan belgilanishi isbotlanishini kuzatish mumkin. Xulosalar davlatlarning geosiyosiy strategiyalarini fundamental qayta anglash va milliy xavfsizlik kontseptsiyalarini eterokratik reallikka moslashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Geosiyosat fani davlatlar o'rtasidagi qudrat, hudud va strategik resurslar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tahlil qiluvchi nazariy va amaliy yondashuvlar tizimi sifatida shakllangan. Biroq geosiyosat boshqa ko'plab ilmiy yo'nalishlardan farqli ravishda bir sohaga ixtisoslashgan tor fan emas, balki tarix, geografiya, siyosatshunoslik, iqtisodiyot va harbiy strategiyani o'zida mujassam etgan kompleks, tizimli yondashuvdir. Shu sababli bu fanning ta'rifi turli olimlar tomonidan turlicha izohlangan. Masalan, Colin Gray tomonidan ilgari surilgan "barcha siyosat geosiyosatdir" degan fikr geosiyosatni nihoyatda keng qamrovli tushuncha sifatida talqin qiladi. Ushbu yondashuv bir qarashda "geo" omilini ikkinchi darajaga tushirayotgandek ko'rinsa-da, aslida davlatlarning o'zi hududiy birlik sifatida mavjud bo'lgani uchun ularning barcha siyosiy harakatlari bevosita yoki bilvosita geosiyosiy xarakter kasb etadi. Geosiyosatga yana boshqacha talqin bergan olim Henry Kissingerdir. Geosiyosatni kuchlar muvozanatini saqlashga qaratilgan strategik yondashuv sifatida baholagan. Uning fikricha, xalqaro tizimdagi barqarorlik yirik davlatlar o'rtasidagi muvozanat bilan ta'minlanadi. Tarix shuni ko'rsatadiki, mazkur muvozanat

ko'pincha hudud, resurslar va geografik joylashuv bilan mushtaraklikni tashkil etadi. Shu jihatdan, geosiyosat doimo makon ustidan nazorat orqali qudratni amalga oshirish vositasi hisoblangan.

Yuqorida aytib o'tilganidek, davlat tushunchasining o'zi ham bevosita hudud bilan bog'lanadi. Har qanday davlat muayyan geografik makonda joylashgan bo'lib, uning siyosiy, iqtisodiy va harbiy salohiyati aynan shu makondagi ta'sir darajasi bilan baholanadi. Tarixan davlatlar o'z qudratini oshirish uchun fizik makonni, xususan, quruqlik, dengiz va keyinchalik havo hududlarini nazorat qilishga intilgan. Bunday uslub klassik geosiyosiy nazariyalarda o'z ifodasini topgan bo'lib, ular tellurokratiya (quruqlik ustunligi), talassokratiya (dengiz ustunligi) va aerokratiya (havo ustunligi) kabi tushunchalarda mujassamlashgan. Mazkur nazariyalar, ayniqsa, Birinchi va Ikkinchi jahon urushlari davrida hamda urushdan keyingi davrda global kuch muvozanatini belgilashda muhim rol o'ynadi. Sovuq urush davrida esa raqobat yanada murakkablashib, qurollanish poygasi kosmik makonni ham qamrab oldi. Sun'iy yo'ldoshlar uchirilishi, kosmik kuzatuv tizimlarining rivojlanishi va global aloqa infratuzilmasining shakllanishi geosiyosiy raqobatni yangi bosqichga olib chiqdi. Bu haqda batafsil yozishdan avval esa, nega kosmik raqobat paydo bo'lgani haqida qisqacha to'xtalsak.

XIX-XXI asrlar mobaynida texnologik taraqqiyotning rivojlanishi geosiyosatning an'anaviy tushunchalarini tubdan o'zgartira boshladi. 1876-yilda Aleksandr Bell tomonidan telefonning ixtiro qilinishi ortidan axborot almashinuvida fizik masofa ahamiyatining kamayishi bu o'zgarishlarni boshlab berdi. So'ngra, internet va global tarmoqlarning paydo bo'lishi bu jarayonni yanada chuqurlashtirdi. "Interconnected Network" sifatida paydo bo'lgan internet insoniyat tarixida ilk bor fizik makondan mustaqil bo'lib tuyuladigan, ammo aslida uning ichida mavjud bo'lgan yangi kommunikatsion qatlamni paydo qildi. Natijada, klassik geosiyosiy makon tushunchasi kengayib, fizik makon ichida yangi kiber va axborot makoni shakllandi. Bu makonda ma'lumotlar raqamli shaklda saqlanib, endi ko'plab tizimlar raqamlashtirilayotganini ko'rishimiz mumkin. XXI asrga kelib, strategik ustunlik tushunchasi klassik hududiy nazorat doirasidan chiqib, axborot oqimlari, raqamli infratuzilma va kognitiv ta'sir salohiyati kabi yangi determinantlar vositasida qayta shakllantirdi.

Aynan shu sharoitda geosiyosiy qudratning yangi shakli — eterokratiya tushunchasi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Eterokratiya fenomeni raqamli imkoniyatlarning oddiy yig'indisidan iborat bo'lmay, u virtual hamda fizik makonlarning o'zaro integratsiyasi natijasida yuzaga kelgan ko'p qirrali boshqaruv modelidir. Ushbu modelda hokimiyat subyekti endilikda faqatgina hududni egallashga emas, balki axborot oqimlari orqali kognitiv jarayonlarni manipulyatsiya qilish va strategik qarorlar qabul qilish zanjirini nazorat ostiga olishga tayanadi. Mavjud ilmiy adabiyotlarda kiber makon ko'pincha geosiyosatning yangi, "to'rtinchi" o'lchami sifatida baholanib, boshqa modellarga solishtiriladi. Bu modelning asosiy farqi shundaki, u to'laligicha inson tomonidan yaratilgan yagona makondir. Shu tufayli raqamli makon, to'la mustaqil emas, fizik infratuzilmaga, serverlar, kabel tarmoqlari, sun'iy yo'ldoshlar va energiya tizimlariga bevosita bog'liq bo'lib, ularning ustida quriladi va ular orqali faoliyat yuritadi. Shu sababli u mavjud makoniy tuzilmalarni inkor etmasdan, aksincha, ularni chuqur transformatsiya qiladi.

Mazkur tadqiqot mazkur yo'nalishdagi nazariy bo'shliqni bartaraf etishga xizmat qiladi. Maqolada eterokratiyaga fizik makonning har bir jabhasiga singib boruvchi hamda axborot ustunligi negizida butun tizimni qayta shakllantiruvchi meta-qatlam maqomida yondashiladi. Bu esa o'z navbatida tellurokratiya, talassokratiya va aerokratiya o'rtasidagi klassik chegaralarning barham topishiga va ularning yaxlit, o'zaro integratsiyalashgan arxitektura sifatida namoyon bo'lishiga zamin yaratadi. Ushbu tezisni asoslash uchun maqolada nazariy tahlil bilan bir qatorda

zamonaviy harbiy, texnologik va axborot urushlari amaliyotidan olingan aniq misollar va keyslar ham keng yoritiladi.

I. Umumiy nazariy asoslar va klassik geosiyosat

Geosiyosatni chuqur anglash uchun, avvalo uning tarkibiy elementlarini ajratib, ularning mazmunini va tarixini tahlil qilish zarur. Har qanday murakkab nazariy tizim singari, geosiyosat ham oddiy tushunchalarning o'zaro bog'lanishidan shakllanadi. Shu nuqtayi nazardan, geosiyosatni tushunish "geo" va "siyosat" so'zlarining mohiyatini ochib berishdan boshlanadi. "Geo" atamasi qadimgi yunon tilidagi "gē" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, u yer, hudud va makonni bildiradi. "Siyosat" esa hokimiyatni qo'lga kiritish, uni saqlab qolish va amalga oshirish jarayonini ifodalaydi.

Geosiyosat XIX–XX asrlarda shakllangan nazariy yo'nalish sifatida davlatlar o'rtasidagi kuch va makon munosabatlarini tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, uning asosiy g'oyalari Friedrich Ratzel, Halford Mackinder, Alfred Thayer Mahan, Nicholas Spykman, Karl Haushofer va Aleksandr Dugin kabi olimlar tomonidan ishlab chiqilgan. Ushbu yondashuvning markazida ikki asosiy qarama-qarshi tushuncha, tellurokratiya (quruqlik kuchi) va talassokratiya (dengiz kuchi) o'rtasidagi fundamental dualizm yotadi. Tellurokratiya hududiy yaxlitlik, qat'iy chegaralar, markazlashgan boshqaruv va kontinental strategiyalar bilan tavsiflanadi, bunda yer resurslari va quruqlik ustidan nazorat asosiy ustunlik hisoblanadi. Talassokratiya esa aksincha, dengiz yo'llari, savdo tarmoqlari, harakatchanlik va ochiqlikka asoslangan bo'lib, global ta'sirni dengiz orqali kengaytirishga tayanadi. Ushbu ikki model nafaqat geografik va strategik farqlarni, balki turli siyosiy tafakkur, xavfsizlik konsepsiyalari va dunyoqarashlarni ham ifodalaydi, natijada ular xalqaro munosabatlar tizimida kuchlar muvozanatini tushuntirishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Ingliz geografi va siyosiy mutafakkiri Halford Mackinder 1904-yilda chop etilgan "The Geographical Pivot of History" ("Tarixning geografik o'qi") asarida "Heartland" (yadro hudud) konsepsiyasini ilgari surdi. Ushbu nazariyaga ko'ra, Yevrosiyoning markaziy hududlarini nazorat qilgan davlat global miqyosda ustunlikka erishish imkoniyatiga ega bo'lardi. Mackinderning mashhur formulasi quyidagicha ifodalanadi: "Kim Sharqiy Yevropani nazorat qilsa, Heartlandni nazorat qiladi; kim Heartlandni nazorat qilsa, Yer orolini boshqaradi; kim Yer orolini boshqarsa, dunyoni boshqaradi." Mazkur yondashuv keyinchalik quruqlikka asoslangan qudrat, tellurokratiya nazariyasining asosiga aylandi. Tellurokratiya kontinentlar va quruqlik resurslariga tayangan holda shakllanadigan geosiyosiy kuch turini anglatadi. Bunday davlatlar odatda keng hudud, strategik joylashuv va tabiiy resurslarga ega bo'lib, bu ularga harbiy va iqtisodiy ustunlik beradi. Klassik misollar sifatida Rossiya va Germaniya kabi quruqlik davlatlarini keltirish mumkin. Tellurokratik model davlatlarga uzoq muddatli barqarorlik, ichki resurslarga tayanish hamda quruqlikdagi harbiy ustunlikni ta'minlash imkonini beradi. Yana bir muhim mutafakkirlardan biri Fridrix Ratzel tellurokratiyani "Lebensraum" (jonli makon) konsepsiyasi bilan bog'lab, davlatning kengayishi va hududiy nazoratini uning yashab qolishi uchun zarur omil ekanligini qayd etib ketgan. Unga ko'ra, quruqlik davlatlari o'zining ichki resurslari va geografik joylashuvi orqali mustaqil geosiyosiy markazga aylanishi mumkin edi.

Tellurokratiya tushunchasining chuqurroq falsafiy talqinini rus geosiyosatchisi Aleksandr Dugin asarlarida ham uchratish mumkin. Dugin tellurokratiyani "yer sivilizatsiyasi" maqomida ko'rib, uni talassokratiya, dengiz sivilizatsiyasiga qarama-qarshi qo'yadi. Unga ko'ra, tellurokratik davlatlar an'anaviylik, barqarorlik va kollektiv qadriyatlarga asoslansa, talassokratik davlatlar liberalizm, savdo va individualizm bilan ajralib turadi. Bu nazariya tellurokratiyani ham geografik, hami sivilizatsion kategoriya sifatida baholash imkonini berdi. Shuningdek, Friedrich Ratzel ning

“organik davlat” nazariyasi ham tellurokratiya rivojida muhim qismidir. Ratzel davlatni tirik organizmga qiyoslab, uning rivojlanishi hududiy kengayish bilan bog‘liq ekanini ta’kidlagandi. Unga ko‘ra, davlat o‘shisi uchun yangi hududlarga ehtiyoj sezadi va bu ehtiyoj tabiiy jarayon sifatida qaraladi. Ushbu yondashuv keyinchalik tellurokratik strategiyalarning nazariy asoslaridan biriga aylangan. Tellurokratiyaning yana bir muhim jihati bu strategik joylashuv tushunchasidir. Quruqlik davlatlari odatda keng hududga ega bo‘lgani sababli, ular harbiy bosimga nisbatan chidamliroq bo‘ladi. Masalan, Rossiyaning tarixiy tajribasida bu yaqqol ko‘rinadi: keng hudud va qattiq iqlim sharoitlari tashqi bosqinlarga qarshi tabiiy himoya vazifasini bajargan. Shu bilan birga, ichki resurslarga tayanish imkoniyati tellurokratik davlatlarga iqtisodiy mustaqillikni ta’minlaydi.

Klassik geosiyosatning ikkinchi muhim nazariyasi bu talassokratiyadir. Talassokratiya bu dengizlar, okeanlar va global savdo yo‘llari ustidan nazoratga asoslangan geosiyosiy qudrat shakli bo‘lib, u asrlar davomida davlatlarning iqtisodiy va harbiy ustunligini belgilab kelgan. Klassik geosiyosatda talassokratiya quruqlikka asoslangan tellurokratiyaga qarama-qarshi model sifatida qaraladi. Agar tellurokratiya hududiy kenglik va resurslarga tayanishi hisobga olinsa, talassokratiya mobilitet, savdo va kommunikatsiya ustidan nazorat orqali ustunlikka erishadi. XX asrga kelib, ushbu modelning eng mukammal ifodasi sifatida Amerika Qo‘shma Shtatlari maydonga chiqdi.

Talassokratik tafakkurning nazariy asoslari amerikalik dengiz strategisti Alfred Thayer Mahan tomonidan ishlab chiqilgan. Uning “The Influence of Sea Power upon History” asarida dengiz qudrati davlatning global ta’sirini belgilovchi asosiy omilligi keltirilgan. Mahan fikricha, kuchli flot, strategik portlar va savdo yo‘llari ustidan nazorat global ustunlikni ta’minlaydi. Ushbu g‘oya AQSH tashqi siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biriga aylangan. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida AQSH o‘zining talassokratik strategiyasini shakllantira boshladi. Ispaniya-Amerika urushi (1898) natijasida AQSH Karib dengizi va Tinch okeanidagi muhim hududlar ustidan nazoratni qo‘lga kiritdi. Filippin, Guam va Puerto-Riko kabi hududlar AQSH uchun strategik tayanch punktlarga aylangani AQShni regional kuchdan global dengiz qudratiga aylanishining boshlanishi edi.

XX asr davomida AQSh talassokratiyani yanada mustahkamladi. Ikkinchi jahon urushidan so‘ng AQSh dunyoning eng kuchli dengiz flotiga ega davlatga aylandi. Atlantika va Tinch okeanidagi harbiy bazalar, NATO kabi ittifoqlar orqali dengiz yo‘llari ustidan nazorat o‘rnatildi. Sovuq urush davrida AQSh dengiz strategiyasi Sovet Ittifoqining quruqlikdagi ustunligiga qarshi muvozanat vazifasini bajardi. Bu davrda dengiz kuchi nafaqat harbiy, balki siyosiy bosim vositasiga ham aylandi. AQSh uchun talassokratik strategiyaning eng muhim jihatlaridan biri global savdo yo‘llarini himoya qilish va nazorat qilish bo‘ldi. Bugungi kunda xalqaro savdoning katta qismi dengiz orqali amalga oshirilishi asosiy sababchi omil bo‘lib qoldi. AQSH esa o‘z flotlari orqali muhim dengiz chokepointlari hisoblangan Hormuz bo‘g‘ozi, Malakka bo‘g‘ozi va Suvaysh kanali kabi strategik yo‘llarni nazorat qilish yoki ularga ta’sir ko‘rsatish imkoniyatiga egaligi AQSHga iqtisodiy va siyosiy ustunlik beradi. Biroq vaqt o‘tishi bilan talassokratiya ham transformatsiyaga uchrab, XXI asrda dengiz ustidan nazoratning o‘zi global ustunlikni ta’minlash uchun yetarli emasligi ma’lum bo‘ldi. Raqamli texnologiyalar, sun‘iy yo‘ldosh tizimlari va axborot tarmoqlari global kuch muvozanatini o‘zgartira boshladi. Dengiz floti mustaqil ustunlik manbai o‘rnidan chiqib, kengroq tizimning bir qismi sifatida namoyon bo‘lishni boshladi.

II. ETEROKRATIYA TUSHUNCHASI VA NAZARIY ASOSLARI

Yuqoridagi yondashuvlar quyidagi fundamental savolni keltirib chiqaradi. Agar makonning o'zi o'zgarsa yoki kengaysa, ushbu nazariyalar qanchalik darajada dolzarb bo'lib qoladi? Shu masalada makon tushunchasining evolyutsiyasini tahlil qilish zarurati yuzaga keladi.

Tarixiy jihatdan qaralganda, makon tushunchasi narsa va hodisalar yuz beradigan va faqatgina anglab bo'ladigan fenomen sifatida keltirilgan va texnologik taraqqiyot bilan chambarchas bog'liq holda o'zgarib borgan. Ilk davrlarda makon asosan fizik masofa va hududiy chegaralar bilan belgilanar edi. Axborot almashinuvi esa bevosita jismoniy harakatga bog'liq bo'lgan (bevosita suhbatlar, devorlarga o'yilgan yozuvlar, kitoblar). Biroq 1876-yilda Alexander Graham Bell tomonidan telefonning ixtiro qilinishi ushbu paradigmadagi muhim burilish yasadi. Insoniyat axborotni makonda jismoniy harakatlarsiz ham uzatishi mumkinligi makonning fizik bo'lishi bilan birga, kommunikatsion o'lchamga ham ega ekanligini ko'rsatdi. Keyingi bosqichda, XX asr oxirida internetning paydo bo'lishi makon tushunchasini yanada murakkablashtirdi. Global tarmoqlar orqali axborot almashinuvi deyarli chegarasiz tus oldi va natijada "kiber makon" deb ataluvchi yangi tushuncha shakllandi. Bu maydonda endilikda o'zining hodisalari va narsalari (sun'iy aql, axborot almashinuvi va shunga o'xshash) borligi klassik ta'riflarga ko'ra makon deb nomlashga asos yaratadi. Ushbu makon fizik hududdan farqli o'laroq aniq chegaralarga ega emas, shuningdek, u to'liq mustaqil ham emas. Chunki uning mavjudligi serverlar, kabel tizimlari, sun'iy yo'ldoshlar va energiya infratuzilmasi kabi fizik elementlarga bevosita bog'liq. Demak, kiber makon fizik makondan ajralgan holda emas, balki uning ichida, unga tayanib shakllanadi.

Ma'lumki, geosiyosat kuchlar balansini ushlab turish uchun foydalaniladigan uslubdir. Geosiyosatda yangi mustaqil makon sifatida keltirilishi uchun, aynan shu maydonda kuch ishlatish orqali maqsadga erishish mumkin bo'lishi kerak. Kuch esa ijtimoiy munosabatlar mahsuli bo'lib, u faqat aktyorlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir jarayonida yuzaga chiqadi va boshqalarning imkoniyatlari hamda xatti-harakatlariga ma'lum makonda ta'sir ko'rsatish orqali namoyon bo'ladi. Shu nuqtai nazardan, kibermakon doirasida shakllanadigan va amalga oshiriladigan kuch munosabatlarining yig'indisi mavjud va u kiberkuch sifatida qaraladi, u alohida yangi kuch turi emas, balki mavjud kuch shakllarining raqamli muhitdagi ifodasidir. Kibermakonda kuch turli shakllarda namoyon bo'ladi. Majburiy kiberkuch to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatish orqali, jumladan tizimlarga kirish, ma'lumotlarni o'g'irlash, xizmatlarni izdan chiqarish yoki tahdid qilish orqali boshqa subyektlarning harakatlarini o'zgartirishga xizmat qiladi. Institutsional kiberkuch esa global va milliy darajadagi tashkilotlar, qoidalar va standartlar orqali bilvosita boshqaruvni ta'minlab, foydalanuvchilarning xulq-atvorini shakllantiradi hamda davlatlar va boshqa aktyorlarning manfaatlarini ilgari surishga imkon beradi. Strukturaviy kiber-kuch tarmoqlashgan jamiyat sharoitida iqtisodiy va ijtimoiy tizimlarning tuzilishini belgilab, axborot, bilim va texnologiyalar asosida shakllanadigan yangi munosabatlar orqali aktyorlarning imkoniyatlarini kengaytiradi yoki cheklaydi. Shu bilan birga, u mavjud global tizimlarni saqlab qolish bilan birga, ayrim hollarda ularni o'zgartirish yoki zaiflashtirish imkonini ham yaratadi. Produktiv kiberkuch esa axborot oqimi, diskurs va raqamli kommunikatsiya vositalari orqali insonlarning qarashlari, identifikatsiyasi va ijtimoiy rollarini shakllantiradi, bu esa siyosiy, madaniy va strategik jarayonlarga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Kibermakonda ushbu barcha kuch shakllari o'zaro bog'liq holda ishlaydi va kompleks tizimni tashkil etadi, natijada raqamli muhit nafaqat texnologik platforma, balki kuchning ishlab chiqilishi, taqsimlanishi va amalga oshirilishining muhim maydoniga aylanadi. Kiberkuch kibermakon ichidagi istalgan natijalarni olish uchun ishlatilishi

yoki kibermakondan tashqaridagi maqsadlarga yetish uchun o'z instrumentlaridan foydalanishi mumkin.

Demak, makon tushunchasining evolyutsiyasi geosiyosatning ham transformatsiyasiga olib keladi. Masalan, Google yoki Meta Platforms kabi transmilliy texnologik kompaniyalar global axborot oqimlarini shakllantirish orqali davlatlarga xos bo'lgan ta'sir darajasiga yaqinlashib borishi geosiyosiy kuch tushunchasining o'zgarayotganidan darak beradi.

Shunday qilib, geosiyosiy makon tushunchasi o'zining an'anaviy statik tabiatini yo'qotib, tobora dinamik mazmun kasb etayotganini kuzatish mumkin. Makon kengaygani sari geosiyosatning obyekt ham, instrumentlari ham o'zgaradi. Zamonaviy dunyoda klassik modellarda ta'riflangan makonni nazorat qilish usullari ozgarayotganini guvohi bo'lyapmiz. Natijada quyidagi xulosaga kelish mumkin, geosiyosatning mohiyati o'zgarmagan, u hanuzgacha makon ustidan nazorat orqali hokimiyatni amalga oshirishni anglatadi. Biroq makonning o'zi o'zgargan. Aynan shu o'zgarish eterokratiyaning paydo bo'lishiga zamin yaratdi.

Klassik geosiyosatda qudrat hududiy nazorat orqali belgilanishi, XXI asrga kelib, ko'rinmas makon, "eter" bilan to'ldirildi. Eter bu yerda fizik bo'lmagan, lekin real ta'sirga ega bo'lgan muhitni anglatadi. Bugungi kunda quruqlik, dengiz va havo kuchlarining operatsion samaradorligi bevosita raqamli infratuzilma, sun'iy yo'ldosh navigatsiyasi va axborot ustunligiga bog'liq bo'lib qoldi. Binobarin, eterokratiya barcha klassik makonlar ustidan nazoratni ta'minlovchi o'ziga xos «meta-makon» maqomida namoyon bo'ladi. Mazkur konsepsiya doirasida, avval ta'kidlanganidek, kuch tushunchasining jismoniy xususiyatdan tarmoqli tuzilmalarga transformatsiyasi kuzatiladi. Bunday sharoitda an'anaviy davlat markazchiligi zaiflashib, yirik texnologik korporatsiyalar kabi nodavlat subyektlarning global geosiyosiy o'yinchilar sifatida maydonga chiqishi uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda.

Eterokratiyani nazariy tushunchadan amaliy tahlil tekisligiga ko'chirish uchun, eng avvalo, uning qudratini belgilovchi yangi o'lchov mezonlarini aniqlashtirish talab etiladi. Klassik geosiyosatda davlatlar qudrati hududiy ko'lam, xomashyo zaxiralari va an'anaviy harbiy salohiyat bilan baholangan bo'lsa, zamonaviy strategik muhitda bu mezonlar tubdan transformatsiyaga uchradi. Endilikda strategik ustunlikning poydevori sifatida global axborot oqimlarining "nerv tizimi" bo'lgan raqamli infratuzilma, optik kabel tarmoqlari, serverlar va yirik ma'lumotlar markazlari ustidan o'rnatilgan nazorat ko'riladi. Mazkur infratuzilmaviy ustunlik sun'iy intellekt va algoritmlar vositasida ulkan hajmdagi ma'lumotlarni (Big Data) tahlil qilish hamda yo'naltirish imkoniyati bilan to'ldiriladi. Bu jarayonda hokimiyat manbayi shunchaki axborotga egalik qilishda emas, balki algoritmlar yordamida jamoatchilik fikrini shakllantirish va strategik qarorlar qabul qilish mexanizmlariga ko'rinmas ta'sir o'tkazishda namoyon bo'ladi.

Shu bilan birga, kiber-hujum va himoya salohiyati an'anaviy harbiy kuchning raqamli proksisi sifatida geosiyosiy vaznni belgilovchi hal qiluvchi faktorga aylandi. Raqibning hayotiy muhim tizimlariga kirib borish va ularni masofadan turib izdan chiqarish qobiliyati bugungi kunda harbiy strategiyalarning ajralmas qismidir. Eterokratiyaning eng murakkab va nozik jihati esa kognitiv ta'sir o'tkazish imkoniyatlarida aks etadi. Bunda geosiyosiy maqsadlar jismoniy hududlarni egallash orqali emas, balki media va ijtimoiy platformalar yordamida insonlarning fikrlash tarzi, ijtimoiy xulq-atvori hamda umumiy kayfiyatini jilovlash orqali amalga oshiriladi. Binobarin, zamonaviy dunyoda kuch markazlari endilikda moddiy resurslardan ko'ra ko'proq axborotni qayta ishlash va inson ongi ustidan nazorat o'rnatish salohiyati bilan o'zaro raqobatga kirishadi.

Nazariy tushunchaning haqiqiyligini ko'rsatish uchun uning amaliy ko'rinishlarini tahlil qilish zarur. So'nggi yillardagi global jarayonlar eterokratiyaning tobora kuchayib borayotganini aniq namoyon etmoqda. Birinchi misol sifatida kiber urushlarni keltirish mumkin. Davlatlar o'rtasidagi raqobat endilikda faqat harbiy maydonda emas, balki kiber makonda ham kechmoqda. Energetika tizimlari, bank infratuzilmalari va davlat axborot tizimlariga qilingan hujumlar geosiyosiy bosim vositasi bo'lib ko'rinadi. Ikkinchidan, axborot urushlari. Ijtimoiy tarmoqlar orqali jamoatchilik fikriga ta'sir o'tkazish, siyosiy jarayonlarga aralashish va dezinformatsiya tarqatish zamonaviy geosiyosatning ajralmas qismiga aylangan. Global texnologik kompaniyalar faoliyati ham bunga misol bo'ladi. Ular milliardlab foydalanuvchilarni qamrab olgan holda, axborot oqimlarini boshqaradi. To'rtinchi muhim misol, sun'iy yo'ldosh tizimlari va GPS infratuzilmasidir. Zamonaviy harbiy operatsiyalar, logistika va kommunikatsiya tizimlari aynan ushbu texnologiyalarga tayanadi.

Eterokratiyani to'liq tushunish uchun uni tanqidiy nuqtai nazardan ham baholash zarur. Asosiy savol shundan iborat: eterokratiya haqiqatan yangi geosiyosiy yo'nalish hisoblanadimi yoki bu klassik geosiyosatning faqat kengaygan shaklimi? Bir tomondan qaraganda, eterokratiya tubdan yangi model sifatida namoyon bo'ladi. Chunki u makonni fizik kategoriyadan chiqarib, uni tarmoqli va chegarasiz tizimga aylantirdi. Bundan tashqari, u davlatdan tashqari aktorlarning rolini keskin oshirib va qudratni markazlashishini cheklaydi. Boshqa tomondan esa, eterokratiya klassik geosiyosatning mantiqiy davomidir. Chunki uning asosida hamon bitta prinsip yotadi: makon ustidan nazorat orqali qudratga erishish. Faqat bu makon endilikda o'zgargan, u fizik emas, balki raqamli va kognitiv xarakterga ega. Shu sababli eng asosli xulosa shundan iboratki, eterokratiya alohida, mutlaqo yangi paradigma emas, balki geosiyosatning evolyutsion bosqichidir. U klassik modellarning o'rnini egallamaydi, balki ularni o'z ichiga olgan holda yanada murakkab tizimni shakllantiradi.

Yuqorida keltirilgan fikrlarni, haqiqiy caselar misolida ko'rib chiqsak. Rossiya–Ukraina urushi bu jarayonning eng yaqqol misollaridan biri hisoblanadi. Chunki bu urushda nafaqat fizik makonda janglar olib borilgan, balki kiber makon ham asosiy o'rin egallaydi. Ushbu kiber makondagi muhim qurollar bu propaganda va dezinformatsiya hisoblanadi. So'nggi o'n yil davomida dezinformatsiya va propaganda strategiyalari sezilarli darajada rivojlandi. Ayniqsa, super kuchlarning hududiy mojaralarda aralashuvlari, ularning kiber makondagi axborot urushiga ham aylandi. Xususan, ikki raqobatchining manfaatlari o'zaro kesishgan nuqtalar, Suriya va Ukraina mojarolari ushbu strategiyaning takomillashuviga turtki bo'ldi.

Davlatlar propagandasining asosiy xususiyati — bu axborotning sifati emas, balki miqdoriga urg'u berilishi. Ko'plab yolg'on yoki chalg'ituvchi xabarlar botlar va ijtimoiy tarmoqlar orqali ommaviy tarzda tarqatiladi. Bunday yondashuvning maqsadi foydalanuvchini to'liq ishontirish emas, balki uni chalg'itish va axborot maydonida noaniqlik yaratishdan iborat. Natijada, insonlar uchun to'g'ri va noto'g'ri ma'lumotni ajratish qiyinlashadi, hatto ishonchli manbalarga bo'lgan ishonch ham pasayadi. Shu orqali "haqiqat" tushunchasining o'zi nisbiylashadi.

Misol uchun, Rossiya bu ishni amalga oshirishda faol ravishda botlarda foydalangan, ya'ni ommaviy yakdillik yoki qo'llab-quvvatlash mavjudligi haqidagi illyuziyani yaratdi va bu jarayonda ayniqsa, twitter (X) platformasi muhim rol o'ynadi. Elon Musk kompaniya boshqaruviga kelganidan so'ng, ma'lumotlar tarqatishga nisbatan siyosat yumshadi va so'z erkinligi ustuvor yo'nalishga aylandi. Bu esa dezinformatsiyaning kengroq tarqalishiga imkon yaratdi.

Rossiyaning bu masalada yana bir muhim strategiyasi uning izchillikka ega emasligidir. Biroq bu zaiflik emas, strategiyaning bir qismi hisoblanadi. Doimiy ravishda o'zgarib turadigan

narrativlar jamiyatda ikkilanish va ishonchsizlikni kuchaytiradi. Natijada, raqib tomon haqiqatni aniqlashda qiynaladi va axborot maydoni beqaror holga keladi.

Yana bir e'tibor qaratadigan muhim jihat bu propaganda va dizinformatsiya har doim ham chiqarilavermaydi, ular ayniqsa bosqin va keyingi harbiy harakatlar kuchayishi bilan bog'liq muhim voqealar paytida sun'iy ravishda sizdiriladi. Bundan maqsad aholi orasida vahima ko'tarish, ishonchsizlikni kuchaytirish, va jamiyatning e'tiborini chalg'itishdir. Bu borada Rossiyaning mutlaq g'alabisini ko'rishimiz mumkin. Chunki mashhur chatbotlar ba'zida rus manbalari tomonidan sizdirilgan dezinformatsiyasi, "AQSH Ukrainada biokimyoviy qurol yaratmoqda"; "Fransiya Kiyevga yollanma askarlar yubormoqda" kabi iboralalarni takrorlagan. Bundan kelib chiqadiki, zamonaviy dunyoda eterokratiya roli oshib borishi bilan birga, boshqa nazariyalar bilan sekin-asta integratsiyalashmoqda.

Qolaversa, eterokratiya sharoitida harbiy qudrat faqatgina jismoniy hudud bilan cheklanib qolmay, kiber-makondagi ustunlikni ham qamrab oladi. Rossiya kiber makondagi ustunlikni egallashga hali urush boshlanmasdan oldin kirishgan. 2022-yil yanvar-fevral oylarida "tayyorgarlik bosqichi" doirasida birinchi wiper (ma'lumotlarni o'chiruvchi) hujumlari, DDoS va defacement operatsiyalari amalga oshirildi. Urush boshlanishi bilan esa "tez va shiddatli" hujumlar bosqichi yuzaga keldi va ayniqsa 2022-yil mart oyida hujumlar soni eng yuqori darajaga yetdi.

Ukraina - Rossiya mojarosida kiber hujumlar faqatgina ikki davlat hududi bilan cheklanib qolmagan. Jumladan: urush bilan bog'liq ushbu kiberhujumlar kamida 50 ta davlatdagi tashkilotlarga ta'sir ko'rsatdi. Geografik taqsimot quyidagicha: 63% hujumlar Ukraina, Rossiya va Belarusdagi tashkilotlarga to'g'ri kelgan bo'lsa, 28% hujumlar boshqa Yevropa mamlakatlariga qaratilgan. 9% hujumlar Yevropadan tashqaridagi davlatlarga ham ta'sir qilgan.

Eterokratiya sharoitida urush olib borish texnikalari, strategiyalari va taktikalari butunlay o'zgaradi. Davlatlarga endi DDoS hujumlar orqali davlat saytlarini ishdan chiqarish, Spearfishing orqali tizimlarga kirib borish, Wiper dasturlar yordamida ma'lumotlarni yo'q qilish, Hack-and-leak operatsiyalari orqali o'g'irlangan ma'lumotlarni tarqatish kabi yangi texnikalarni qo'llash orqali hujumlar uyushtiriladi. Jismoniy vayronkorlik o'rnini raqamli izolyatsiya egallaydi. Agar nishon kiber-makondan uzib qo'yilgan bo'lsa, u moddiy dunyoda qanchalik butun bo'lmasin, strategik qiymatini butunlay yo'qotadi. Bu - qudratning jismoniy shakldan eter shakliga o'tishining yaqqol isboti. Shu o'rinda ushbu mojarodagi nishonga olingan sektorlarni tahlil qilsak, deyarli har bir soha bu hujumlardan chetda qolmagan. Davlat tashkilotlari eng ko'p hujumga uchragan obyektlar bo'lsa, mudofaa sektorida hujumlar ko'pincha bevosita urushga jalb qilingan tuzilmalarni nishonga oldi. Masalan: Ukraina va Rossiya Qurolli Kuchlari qator shtablarining axborot markazlari kiber hujumlarga uchragan. IT va telekommunikatsiya - nishonga olingan uchinchi eng yirik soha bo'ldi. Hujumchilar bu sohaga qarshi turli xil usullardan foydalanishdi. Eng kuchli ta'sir ko'rsatgan hujumlar 2022-yil fevral va mart oylarida Ukraina shaharlari yoki viloyatlarida internetga kirishning uzilishiga sabab bo'lgan hujumlar seriyasi bo'ldi. Bunday hujumlardan zarar ko'rgan yana bir sektor bu fuqarolik jamiyati va fuqarolar hisoblanadi. Bu hujumlar ko'pincha muvofiqashtirilgan, sun'iy ijtimoiy media harakatlari ko'rinishidagi axborot operatsiyalari nishoniga aylandi. Bu operatsiyalar Rossiyaning Ukrainadagi urushini qo'llab-quvvatlovchi g'oyalarni ilgari surish va auditoriyaning urush haqidagi fikrini o'zgartirishga harakat qildi. Qolaversa, endilikda generallar, armiya orqali hujum qilish shart bo'lmay qoldi, chunki kiber makonda xakker-aktivist guruhlar asosiy vazifani bajarishadi. Jumladan, Rossiya tarafdin moliyalashtirilgan yoki Rossiyaga xayrixoh bo'lgan kamida 18 ta taxminiy xakker-aktivistlar guruhi yoki jamoalari qayd etilgan. Eng ko'p hujumlar Killnet, NoName057(16), XakNet Team, Anonymous

Russia va Cyber Army of Russia guruhlari tomonidan qayd etilgan. Boshqa tarafdin qarasa, tabiiyki, Ukrainani qo'llab-quvvatlovchi guruhlar ham mavjud va ular kamida 33 ta xaker-aktivistlar guruhini tashkil etadi. Eng ko'p hujumlar esa quyidagi guruhlar tomonidan qayd etilgan: Anonymous, Team OneFist, DDoSecrets, IT Army of Ukraine va NB65. Ukraina Kiber-favqulodda vaziyatlarga javob berish guruhi (CERT-UA) ma'lumotlariga ko'ra: 2024-yilning ikkinchi yarmiga kelib, kiber-hodisalar soni urush boshlanganiga qaraganda 48% ga keskin oshib, kuniga o'rtacha 14 ta yirik kiberhujum qayd etilgan.

Voqealar rivojidan juda yaxshi xabardor bo'lgan Ukraina tarafi, avvaldan bunday hujumlarga qarshi immunitet, himoya tizimini rivojlantirish yo'lida Ukraina 2014-yildan boshlab kiberxavfsizlikka jiddiy e'tibor qaratgan. Xususan, CERT-UA ma'lumotlariga ko'ra, kiberhujumlar soni keskin oshgan bo'lsa-da, ularning ko'pchiligi bartaraf etilgan. Harbiy artilleriya tarafidan Rossiyadan ancha ortda bo'lgan davlat, Rossiya tarafi zarbalariga bardosh berayotgani qaysidir ma'noda kiber maydonda deyarli teng kuchli ekanligi natijasi. Rossiyaning hujumlari kuchayib borishiga qaramay Ukraina bu kiber makonda ustunlikni Rossiyaga mutlaq berib qo'ymadi. Bu mudofaa tizimini kuchaytirishda bir nechta muhim omillar bo'lib, ular xalqaro hamkorlik (G'arb davlatlari bilan), xususiy IT sektor yordami, infratuzilmani tashqi serverlarga ko'chirish tufayli katta talofotlardan qutilishga erishilgan. Natijada, Rossiyaning kiberhujumlari jiddiy zarar yetkazgan bo'lsa-da, strategik natijaga, Ukrainani tezda falaj qilishga erisha olmadi.

Rossiya-Ukraina mojarosi doirasidagi kiber-operatsiyalarni tahlil qilar ekanmiz, nishonlarni yo'q qilishning yangi uslubi — jismoniy vayronkorliksiz tizimni ishdan chiqarish tendensiyasi yaqqol ko'zga tashlanadi. Buning eng yorqin misoli sifatida 19-dekabr kuni Ukraina Adliya vazirligining davlat reestrlariga uyushtirilgan hujumni keltirish mumkin. Ushbu operatsiya natijasida 14 ta muhim davlat reestri faoliyati to'xtab qolishi, mamlakat iqtisodiy va huquqiy hayotini bir lahzada falaj holatiga keltirdi. Eterokratiya nuqtai nazaridan qaraganda, bu hujum faqat axborot o'g'irlash emas, balki davlatning funksional suverenitetiga qilingan zarbadir. Reestrlarning bloklanishi sababli chegara nazorati punktlarida shaxslarni tekshirish imkonsiz bo'lib qoldi, bojxona rasmiylashtiruv to'xtadi, hatto fuqarolarning ko'chmas mulk va meros bilan bog'liq eng fundamental huquqiy operatsiyalari muzlatib qo'yildi. Bu holat shuni isbotlaydiki, raqamli infratuzilmani nazorat qilish orqali butun boshli jamiyatning hayotiy ritmini jismoniy qurol ishlatmasdan to'xtatib qo'yish mumkin.

Urushning davom etishi bilan eterokratik hujumlar yanada maqsadli va murakkab ko'rinish ola boshladi. 2024-yil avgust oyida harbiylar uchun mo'ljallangan "Army+" ilovasi atrofida sodir bo'lgan voqealar kiber-razvedkaning yangi bosqichini ko'rsatdi. Rossiyaning "Sandworm" (UAC-0125) nomi bilan tanilgan hakerlik guruhi davlat tomonidan taqdim etilgan rasmiy raqamli yechimlarga bo'lgan ishonchdan qurol sifatida foydalandi. Ilovaning rasmiy sahifasiga o'xshash soxta saytlar yaratish va Cloudflare xizmati ortiga yashirinish orqali, tajovuzkorlar foydalanuvchilarni aldashga muvaffaq bo'lishdi. Ushbu operatsiyaning texnik jihati shundaki, hakerlar "Army+" ilovasining aslida mavjud bo'lmagan Windows versiyasini "ishlab chiqib", unga yashirin SSH-server o'rnatishgan. Tor tarmog'i orqali masofaviy kirish imkonini beruvchi ushbu zararli dastur harbiylarning shaxsiy va strategik ma'lumotlarini yashirincha nazorat qilish imkonini yaratdi. Bu keys eterokratiya sharoitida har qanday yangi raqamli texnologiya, hatto u milliy xavfsizlikka xizmat qilishi kerak bo'lsa ham, darhol kiber-nishonga aylanishini tasdiqlaydi.

Rossiya-Ukraina urushi shuni ko'rsatadiki, zamonaviy davrda kuch faqat harbiy qudrat bilan emas, balki axborot va kiber makonni nazorat qilish orqali ham amalga oshiriladi. Bu esa eterokratiyaning real va faol ishlayotgan model ekanligini tasdiqlaydi.

III. ETEROKRATIYA VA GLOBAL AKTORLAR

Eterokratiyaning klassik geosiyosatdan farq qiladigan yana bir muhim jihati unda davlat yagona aktor emas. Texnologik kompaniyalar global siyosatda mustaqil o'yinchilarga aylandi. Masalan: Google axborotga kirishni boshqaradi, Meta ijtimoiy kommunikatsiyani nazorat qiladi, Apple texnologik ekotizim yaratadi. Bu kompaniyalar ayrim hollarda davlatlardan ham kuchliroq ta'sirga ega bo'lishi mumkin. Chunki ular ma'lumotlarni nazorat qilib, algoritmlarni boshqargan holda va global auditoriyaga ega bo'lishadi.

Biroq, joylashuv, makon jihatidan tahlil etilsa, bunday katta kompaniyalar ham qaysidir bir davlat hududida joylashganligi, va uning qonun va talablariga bo'ysunishi davlatlarning hali ham asosiy aktor ekanligini ko'rsatadi. Shunga qaramay, bu kabi global kompaniyalar butun dunyo bo'ylab individlarda o'zining ta'sir kuchiga ega ekanligi oqibatida boshqa davlatlarga o'z so'zini o'tkazishi yoki bu ma'lumotlarni manfaatdor davlatlarga sotishi mumkin. Natijada, geosiyosiy tizim "davlatlar o'rtasidagi raqobat"dan "tarmoqlar o'rtasidagi raqobat"ga o'tib, tarmoqlarga ta'siri kuchli davlat geosiyosiy maydonda katta qudratga ega bo'ladi. Bu esa eterokratiyani nafaqat davlatlararo, balki gibrid kuch tizimi sifatida ko'rsatadi.

Eterokratiya nazariyasining yana bir eng yirik amaliy namunasi sifatida Cambridge Analytica (CA) va Facebook mojarosini ko'rishimiz mumkin. Ushbu keys an'anaviy siyosiy kampaniyalarning tugaganini va hokimiyatni egallash mexanizmlari jismoniy maydonlardan raqamli algoritmlar va inson psixologiyasi kesishgan nuqtaga ko'chganini isbotladi. Siyosiy qudrat endi saylovchilar bilan yuzma-yuz muloqot qilishda emas, balki ularning raqamli izlari orqali yashirin manipulyatsiya qilish qobiliyati bilan o'lchana boshlandi.

Cambridge Analytica loyihasi badavlat respublikachi homiy Robert Mercer tomonidan kiritilgan 15 million dollarlik sarmoya va Stiven Bennonning Amerika siyosiy madaniyatini "qayta dasturlash" haqidagi ambitsiyalariga tayangan. Kompaniyaning strategik maqsadi oddiy statistik ma'lumotlarni yig'ish emas, balki amerikalik saylovchilarning xulq-atvoriga ta'sir o'tkazish imkonini beruvchi psixografik qurol yaratish edi. Uddaburon sotuvchi va menejer sifatida tanilgan Aleksandr Niks boshchiligidagi SCL Group bo'limi ushbu g'oyani amalga oshirish uchun siyosiy texnolog Kristofer Uaylini ishga yolladi. Uayli va uning jamoasi oldiga qo'yilgan vazifa saylovchilarning tug'ma psixologik xususiyatlaridan foydalangan holda ularni boshqarish mexanizmini ishlab chiqish edi. Bu jarayonda Cambridge universiteti Psixometrika markazining ilmiy yutuqlari va Facebook platformasining texnik imkoniyatlari birlashtirildi.

Operatsiyaning texnik ijrochisi sifatida Cambridge universiteti va Sankt-Peterburg davlat universitetida faoliyat yuritgan akademik Aleksandr Kogan maydonga chiqdi. U o'zining "Global Science Research" (GSR) kompaniyasi orqali "thisisyourdigitallife" nomli ilovani yaratdi. Mazkur ilova Facebook foydalanuvchilariga shaxsiyat testidan o'tish evaziga kichik miqdorda pul taklif qilgan, ya'ni ushbu dasturga kirishda foydalanuvchilar o'z facebook hisobining login va parollari orqali royxatdan o'tgan va ularga ma'lum miqdorda mablag' berilgan. Biroq, bu yerdagi eng muhim va eterokratik xavf ilovaning Facebook "Graph API v1.0" interfeysidagi "Do'stlar ruxsati" (Friend Permissions) funksiyasidan foydalanganligidir. Bu funksiya ilovaga kirgan 270 ming foydalanuvchining nafaqat o'z ma'lumotlarini, balki ularning barcha do'stlari (jami 50 milliondan ortiq) haqidagi shaxsiy ma'lumotlarni ham ruxsatsiz va ogohlantirishsiz tortib olish imkonini yaratgan. Bu jarayon eterokratiyaning eng dahshatli qoidasini fosh qildi: raqamli muhitda shaxsiy daxlsizlik kollektiv tushunchadir va bitta foydalanuvchining beparvoligi butun boshli tarmoqning fosh bo'lishiga olib kelishi mumkin.

Kogan tomonidan yig'ilgan ma'lumotlar Cambridge Analytica algoritmlari orqali qayta ishlanib, har bir saylovchining individual psixologik portreti yaratildi. Kompaniya OCEAN (Openness, Conscientiousness, Extraversion, Agreeableness, Neuroticism) modelidan foydalangan holda, insonning Facebook'dagi "layk"lari asosida uning hayotdan qoniqish darajasi, intellektual salohiyati (IQ), dindorligi, siyosiy qarashlari va hatto militarizm yoki paranormal hodisalarga bo'lgan moyilligini aniqladi. Olimlarning ta'kidlashicha, ushbu usul inson haqida uning eng yaqin ota-onasi yoki turmush o'rtog'idan ham ko'proq narsani bilish imkonini beradi. Natijada, har bir insonning nimadan qo'rqishi va nimadan ilhomlanishi haqidagi ma'lumotlar "siyosiy qurol"ga aylantirildi. 2014-yilgi shartnomalarda ko'rsatilishicha, bundan asosiy maqsad Facebook hisoblarni o'rganib chiqib, shaxsiyatni tushunishning "oltin standarti"ni yaratish va bu orqali saylovchilar xulq-atvorini bashorat qilish bo'lgan.

Algoritm yaratilgach, Cambridge Analytica ushbu ma'lumotlarni Donald Tramp saylovoldi kampaniyasining xizmatiga topshirdi. Strategiyaning mohiyati ikkilanayotgan saylovchilarni aniqlash va ularga moslashtirilgan siyosiy reklamalarni ko'rsatish edi. Masalan, iqtisodiyot haqidagi xabar "vijdonlilik" darajasi yuqori bo'lgan insonlarga intizom va barqarorlik kontekstida, "yangi narsalarga ochiq" bo'lganlarga esa rivojlanish va innovatsiya sifatida taqdim etildi. Ushbu reklamalar Facebook'da "dark posts" (faqat nishonga olingan foydalanuvchigagina ko'rinadigan reklamalar) shaklida tarqatildi, bu esa jamiyatning boshqa qatlamlari qanday manipulyatsiya ketayotganini ko'rmasligini ta'minladi. Bu usul orqali saylovchilarning tanloviga ularning ongsiz qo'rquvlari va instinktlari orqali ta'sir o'tkazildi, bu esa an'anaviy demokratiyaning erkin tanlov tamoyilini shubha ostiga qo'ydi.

The New York Times va The Guardian nashrlari tomonidan olib borilgan surishtiruvlar Facebook rahbariyati ushbu sizib chiqishdan 2015-yilning oxiridayoq xabardor bo'lganini isbotladi. Biroq, kompaniya foydalanuvchilarni ogohlantirish o'rniga, Cambridge Analytica'dan ma'lumotlarni o'chirish haqida shunchaki yuridik xat talab qilish bilan cheklangan. Undan so'ngra yana bir bor 2016-yil avgustida, ya'ni Tramp kampaniyasi qizigan pallada, Facebook'ning yuristlari Kristofer Uayliga xat yuborib, ma'lumotlarni o'chirishni so'rashgan, biroq buni amalda hech qachon tekshirishmagan. Uaylining so'zlariga ko'ra, Facebook ikki yil kutgan va ma'lumotlar haqiqatan yo'q qilinganini ekspertizadan o'tkazmagan. Bu holat eterokratiya sharoitida platforma egalarining (Facebook kabi) milliy xavfsizlik va demokratik barqarorlikdan ko'ra korporativ obro'ni ustun qo'yishini va kibermakonda kuchli salohiyatga ega bo'lish siyosiy kuchga ega bo'lishga yo'l ochishini ko'rsatdi.

Robert Merserning sarmoyasi va Stiv Bennonning mafkurasi Aleksandr Koganning algoritmi orqali amalga oshdi. Bu yerda davlat suvereniteti va saylov tizimi xususiy raqamli korporatsiyalar qarshisida o'jiz qoldi. Cambridge Analytica va Facebook kabi eterokratik subyektlar birgalikda bir davlatning kelajagini o'zgartira olishini isbotladi. Agar an'anaviy urushda hududlar bosib olingan bo'lsa, bu yerda insonlarning ong osti va qaror qabul qilish jarayoni "bosib olindi".

Geosiyosiy qudratning tarixiy evolyutsiyasi o'zining mantiqiy cho'qqisiga — moddiy makonning chegaralangan imkoniyatlaridan nomoddiy va cheksiz axborot maydoniga o'tish bosqichiga yetib kelgani maqola yordamida tahlil etilganini kuzatish mumkin. Eterokratiya fenomeni zamonaviy dunyoda nafaqat texnologik ustunlikni, balki xalqaro munosabatlarning yangi ontologik asosini ifodalashi, uning Tellurokratiya va talassokratiya davriga xos bo'lgan jismoniy hududlarni egallash strategiyasi o'z ahamiyatini yo'qotmagan bo'lsa-da, u eterokratik gegemoniyaning hosilasiga va ikkinchi darajali elementiga aylanib bormoqda. Bugungi kunda davlatlarning real suvereniteti ularning chegaralari qayerdan o'tishi bilan emas, balki ularning

raqamli va kognitiv signallari qanchalik masofaga yetib borishi hamda o'zga jamiyatlar ongiga qanchalik chuqur singib kirishi bilan o'lchanmoqda.

Tadqiqot jarayonida aniqlanganidek, eterokratik kuchlar tomonidan amalga oshirilayotgan nomoddiy ekspansiya an'anaviy xavfsizlik arxitekturasini tushunchaviy jihatdan inqirozga uchratmoqda. Endilikda agressiya qurolli to'qnashuvlar orqali emas, balki kiber-makonning monopolizatsiyasi va axborot oqimlari ustidan o'rnatilgan nazorat yordamida, hech qanday o'q uzmasdan turib amalga oshirilishi mumkin. Bu jarayon davlatlar o'rtasidagi iyerarxiyani qayta belgilab, dunyoni "texnologik sub'ektlar" va "axborot iste'molchisi bo'lgan ob'ektlar"ga ajratib tashlamoqda.

Xalqaro siyosiy tartibning kelajagi davlatlarning o'z eterokratik salohiyatini qay darajada shakllantira olishiga bevosita bog'liqdir. Milliy manfaatlar endi faqat er usti yoki suv osti boyliklarini himoya qilish bilan cheklanib qolmay, kognitiv suverenitetni saqlab qolish va global signal iyerarxiyasida munosib o'rin egallashni taqozo etadi. Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, XXI asrning haqiqiy qudrati — bu efini nazorat qilish san'atidir; kimki ushbu yangi geosiyosiy o'lchamda o'zining strategik tashabbusini boy bersa, u global siyosiy sahnada o'z taqdirini belgilash huquqidan mahrum bo'lishi muqarrardir. Eterokratiya — bu shunchaki imkoniyat emas, balki zamonaviy davlatning omon qolish sharti va suverenitetning yangi, yuqori shaklidir.

References:

2. Michael Mann, *The Sources of Social Power, Volume 2: The Rise of Classes and Nation-States, 1760–1914*, 2nd ed. (New York: Cambridge University Press, 2012), 56.
3. Henry A. Kissinger, *White House Years* (Boston: Little, Brown and Company, 1979), 914.
<https://doi.org/10.5281/zenodo.20291990>
5. Ratzel, F. (2019). *Politische geographie*. Walter de Gruyter GmbH & Co KG.
6. <https://heritagecalling.com/2022/07/29/the-story-behind-the-worlds-first-telephone/>
7. Betz, David & Stevens, Tim. (2017). *Cyberspace and the State: Toward a Strategy for Cyber-power*. 10.4324/9781351224543.
8. *A greek-english lexicon*. – Clarendon press, 1901.
9. <https://ca-c.org/index.php/cac/article/download/862/774/1579>
11. Ratzel, F. (1901). *Der lebensraum: Eine biogeographische studie*. H. Laupp.
12. Dugin, A. (2015). *Last war of the World-Island: the Geopolitics of contemporary Russia*. Arktos.
13. Smith, W. D. (1980). Friedrich Ratzel and the origins of Lebensraum. *German Studies Review*, 3(1), 51-68.
14. Starr, C. G. (1955). The myth of the Minoan thalassocracy. *Historia: Zeitschrift für Alte Geschichte*, (H. 3), 282-291.
15. Mahan, A. T. (2022). *The influence of sea power upon history*. DigiCat.
16. Nye, Joseph. "Cyber Power." Belfer Center for Science and International Affairs, Harvard Kennedy School, May 2010.
17. Lewis, J. A. (2022, June 16). *Cyber War and Ukraine*. Center for Strategic and International Studies (CSIS).<https://www.csis.org/analysis/cyber-war-and-ukraine>
18. Marigliano, Rebecca & Ng, Lynnette & Carley, Kathleen. (2024). *Analyzing Digital Propaganda and Conflict Rhetoric: A Study on Russia's Bot-Driven Campaigns and Counter-Narratives during the Ukraine Crisis*. 10.21203/rs.3.rs-3997295/v1.
https://www.researchgate.net/publication/378674101_Analyzing_Digital_Propaganda_and_Conflict_Rhetoric_A_Study_on_Russia's_Bot-Driven_Campaigns_and_Counter-Narratives_during_the_Ukraine_Crisis

19. CERT-EU. (2023). CyberOps: TLP-CLEAR-CERT-EU-1YUA-CyberOps [Memorandum]. <https://cert.europa.eu/static/MEMO/2023/TLP-CLEAR-CERT-EU-1YUA-CyberOps.pdf>
20. State Service of Special Communications and Information Protection of Ukraine. (2025). Russian cyber operations: Analytics for the H2 2024. CERT-UA & State Cyber Protection Centre
21. The Guardian. (2025, November 21). English-language websites link pro-Kremlin Russian propaganda Pravda network. <https://www.theguardian.com/world/2025/nov/21/english-language-websites-link-pro-kremlin-russian-propaganda-pravda-network>
22. Cadwalladr, C., & Graham-Harrison, E. (2018, March 17). Revealed: 50 million Facebook profiles harvested for Cambridge Analytica in major data breach. The Guardian. <https://www.theguardian.com/news/2018/mar/17/cambridge-analytica-facebook-influence-us-election>
23. Rosenberg, M., Confessore, N., & Cadwalladr, C. (2018, March 17). How Trump Consultants Exploited the Facebook Data of Millions. The New York Times. <https://www.nytimes.com/2018/03/17/us/politics/cambridge-analytica-trump-campaign.html>
24. Agnew, J. (2011). Space and place. Handbook of geographical knowledge, 2011, 316-331.